(2). Nurimov R.I. Turli toifadagi futbolchilar musobaqa faoliyati tuzilishning tashxisli tahlili."Fan–sportga", 1-son, 2004.
(3). Akramov R.A. Yosh futbolchilarni tayyorlashning nazariy va amaliy asoslari. Toshkent," O'qituvchi", 2015.
(4). Godik M.A. Futbolchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligi. Moskva, "Sport", 2012.
(5). Lopachev Y.N. Futbolda texnik-taktik tayyorgarlik metodikasi. Moskva, "FiS", 2010.

Otamurodova Aziza Sultonmurodovna (UrDPI Boshlang'ich ta'lim fakulteti o'qituvchisi; orcid.org/ 0009-0000-1805-7257)

RAQAMLI JAMIYAT SHAROITIDA TALABALAR MEDIAKOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN MEDIATA'LIM IMKONIYATLARI ILMIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli jamiyat sharoitida talabalarning mediakompetentligini rivojlantirishga qaratilgan media-ta'lim imkoniyatlari va bugungi kunda raqamli jamiyatda axborot vositalaridan foydalanish va qabul qilishda talabalarda mediata'lim yetarli emasligi asosiy muammo sifatida o'rganilganligi keltirib o'tilgan. Talabalarda mediakompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar dolzarb masala sifatida qaralgan.*

Kalit so'zlar: *mediata'lim, mediamatn, raqamli kelajak, deformatsiya (tashqi kuch), ambivalent (kishida bir vaqtning o'zida qarama-qarshi hissiyotning yuzaga kelishi), raqamli davr atributlari, axborot texnologiyalar, mediakompetensiya.*

ВОЗМОЖНОСТИ МЕДИАОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ МЕДИАКОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОГО ОБЩЕСТВА

Аннотация*. В этой статье рассматриваются возможности медиаобразования, направленные на развитие медиакомпетентности студентов в условиях цифрового общества, и недостаточность медиаобразования у студентов как фундаментальная проблема в использовании и восприятии информации в современном цифровом обществе. Научные исследования, направленные на развитие медиакомпетентности у студентов, рассматриваются как актуальная проблема.*

Ключевые слова: *медиаобразование, медиатекст, цифровое будущее, деформация (внешняя сила), амбивалентность (одновременное возникновение противоположных эмоций у человека), атрибуты цифровой эпохи, информационные технологии, медиакомпетентность.*

MEDIA EDUCATION OPPORTUNITIES AIMING AT DEVELOPING STUDENTS' MEDIA COMPETENCE IN THE CONDITIONS OF A DIGITAL SOCIETY AS A SCIENTIFIC-PEDAGOGICAL PROBLEM

Annotation. *This article discusses the opportunities for media education aimed at developing students' media competence in the digital society and the main problem of insufficient media education in students in the use and reception of media in the digital society today. Article discusses the opportunities for media education aimed at developing students' media competence.*

Keywords: *Media education, media text, digital future, deformation (indirect force), ambivalence (one at a time coming to the face of the opposite sensation), digital age attributes, information technology, mediacompetence.*

Kirish. Ta'lim muassasalarida mediata'lim bugungi kunda universitet talabalarining asosiy kompetentlik darajasi bo'lib, mediamaydonida ta'lim muassasasi reytingini shakllantirish uchun asosiy ta'lim texnologiyasi darajasida qaralmoqda. Raqamli texnologiyalardan foydalanish bugungi raqamli jamiyat sharoitida ta'lim muassasalarining asosiy faoliyati sifatida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning media olamidagi faoliyati bilan bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, bugungi kunda zamonaviy ta'limning asosiy talablaridan biri mediata'limni rivojlkantirishga qaratilmoqda.

UNESKO tomonidan tasdiqlangan formulada mediata'limi (media education) pedagogikada "barcha turdagi ommaviy axborot vositalari (bosma va grafik, ovoz, ekran va boshqalar) va turli texnologiyalar bilan bog'liq yo'nalish sifatida belgilanadi. Mediata'lim dunyoning har qanday mamlakatlarda har bir fuqarosining so'z erkinligi va ma'lumot olish huquqi asosiy huquqlarining bir qismi va demokratiyani qo'llabquvvatlash vositasi sifatida qaraladi. Mediata'lim barcha davlatlarning milliy o'quv rejalariga, qo'shimcha yoki norasmiy va doimiy ta'lim tizimiga kiritilishi tavsiya etib kelinmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Mediata'lim va mediamadaniyat bo'yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish bizga kerakli muammoni yechimini ishlab chiqishda quyidagi yo'nalishlarni aniqlashga imkon berdi:

– mediamatnlarni turli yosh toifalarida idrok etish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan aniqlovchi xarakterdagi tadqiqotlar;

– umumiy nazariy xarakterdagi tadqiqotlar, umuman, media va ommaviy axborot vositalarining tushunchalari, modellari, usullarini ilgari surish va tahlil qilish;

– muayyan mediata’lim metodologiyasi masalalari bilan bog‘liq tadqiqotlar [1;3–9-b.].

Ilmiy va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, talabalar mediakompetentligini rivojlantirishda axborot-resurs markazlari pedagogik imkoniyatlaridan foydalanish ham bugungi kunning dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shunday ekan, ilmiy tadqiqotlarda axborot-resurs markazlari sharoitida mediata’lim sohasida o‘qituvchilarning malakasini oshirish muammosi kam o‘rganilgan bo‘lib, yuzaga keladigan muammolar soni doimiy ravishda o‘sib bormoqda. Shu nuqtayi nazaridan, quyidagicha qarama-qarshiliklar yuzaga kelmoqda:

– bo‘lg‘usi o‘qituvchining mediakompetensiyasining integral tabiati va ilmiy-uslubiy ta’minotning yo‘qligi, uni shakllantirish, ta’lim tizimining resurs markazlari sharoitida rivojlantirish bo‘yicha tizimli bilimlar;

– zamonaviy umumta’lim maktabining o‘quv jarayonida mediatexnologiyalaridan foydalanish metodologiyasiga ehtiyoji hamda mediatexnologiyalarini amalga oshirish jarayonini nazariy asoslash va uslubiy qo‘llab-quvvatlashning yetarli emasligi;

– axborot jamiyati va zamonaviy maktabning mediakompetent o‘qituvchiga obyektiv ehtiyoji va o‘qituvchining ilg‘or mediatayyorgarligini ta’minlashda malaka oshirish tizimining yetarli darajada samaradorli emasligi.

Ta’limni axborotlashtirish o‘qituvchilarning kasbiy va pedagogik fazilatlariga, o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning uslubiy va tashkiliy jihatlariga yangi talablarni qo‘yadi. O‘qituvchilarni tayyorlash, ularni malakali foydalanuvchilarga aylantirish muammosini hal qilishning ahamiyati bugungi kunda uzluksiz ta’limning turli bosqichlarida yaxshi natijalarga erishish muvaffaqiyatli hal qilinmoqda. Biroq vaqtinchalik sharoitda o‘qituvchi faqat foydalanuvchi bo‘lishi yetarli emas, pedagogik xodimlarning axborot-kommunikatsiya kompetensiyasini oshirish asosiy vazifalardan biri ekanligidadir.

Pedagogika fanlari nomzodi S.R.Markulis “Axborot-resurs markazi sharoitida o‘qituvchilarning axborot-kommunikatsiya kompetensiyasini oshirish modeli” mavzusidagi tadqiqot ishida “Yagona ta’lim axborot muhitini rivojlantirish” federal maqsadli dasturini (REOIS FSP) amalga oshirish doirasida mintaqaviy resurs markazlari tashkil etish orqali aniq hududlarda yagona ta’lim axborot makonini yaratish jarayonlarini kuzatib boradilar. Tadqiqotda resurs markazi sharoitida o‘qituvchilarning axborot-kommunikatsiya kompetensiyasini (AKK) oshirish quyidagi jarayonlarda samarali bo‘lishi aniqlangan:

– jamiyat, ta’lim tizimi, tinglovchilar, rivojlanayotgan axborot texnologiyalari talablariga muvofiq ta’limni tashkil etishning o‘zgaruvchan shakllaridan foydalanilsa;

– o‘quv jarayoni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, faol va amaliyotga yo‘naltirilgan o‘qitish usullariga asoslanilsa;

– kasbiy o‘sish va takomillashtirishga tayyor bo‘lishga turtki beradigan axborot-ta’lim muhiti yaratilsa [2;3–14-b.].

Ushbu tadqiqot ishida ilmiy shart-sharoitlarni yaratish, o‘qituvchilarni axborot-kommunikatsiya malakasini oshirish yo‘llarini asoslash va shu asosda o‘qitish nazariyasi va metodologiyasini yanada chuqurlashtirishdan iborat bo‘lib, bu axborot-resurs markazi pedagogik imkoniyatlaridan foydalangan holda amalga oshirilishi ilmiy asoslangan.

Mediata’limi va mediamadaniyati bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish bizga kerakli muammoni ishlab chiqishda quyidagi yo‘nalishlarni aniqlashga imkon berdi:

– zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitda murakkab shaxsiy ta’lim, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari to‘g‘risidagi bilimlarning mavjudligi, ularni amaliy qo‘llash ko‘nikmalari va malakalari, faoliyatning turli sohalarida, qolaversa amaliyotda ommaviy axborot vositalaridan foydalanish tajribasi, kompyuter bilan asosiy media vositasi sifatida ishlay olishni;

– maqsadli, mazmunli (prinsiplar va pedagogik sharoitlar), texnologik (kompyuterlashtirilgan o‘quv mashg‘ulotlarida talabalarning mediakompetensiyasini shakllantirish texnologiyasi), kommunikativ (pedagogik o‘zaro ta’sir) va samarali (mediakompetensiyani shakllantirish mezonlari va darajalari) tarkibiy qismlarini o‘z ichiga olgan kutubxona va informatsion mutaxassislar orqali talabalarning media-kompetensiyasini shakllantirish modelini;

– pedagogik sharoitlar mediakompetensiyasini shakllantirish jarayonida talabalarga shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirish, faoliyatning turli sohalarida ommaviy axborot vositalaridan foydalanish va o‘z mediamahsulotlarini yaratish uchun ijodiy vazifalarni ishlab chiqish, kutubxona va axborot texnologiyalari talabalarining mediakompetensiyasini shakllantirish jarayonining samaradorligini aniqlash kabi [3;8–10-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Raqamli jamiyat axborotning haddan tashqari yuklanishi, katta hajmdagi yuzaki, virtual aloqalarining shaxsga ta’siri, kognitiv buzilishlarning shakllanishi va an’anaviy qadriyatlar inqirozi kabi xavflar bilan tavsiflanadi. Virtual makonda jozibali reklama mazmuni va o‘yin-kulgining miqyosi o‘smirlarning tanqidiy fikrlashini cheklaydi va axborot madaniyatining deformatsiyasi omiliga aylanadi. Ilmiy tadqiqotlar nafaqat rasmiy ta’lim muhitida, balki kundalik hayotda ham muvaffaqiyatli ishlash uchun media kompetensiyasini rivojlantirish zarurligini haqli ravishda ta’kidlaydi [4;45–54-b.].

Keng ko‘lamli raqamlashtirish bir tomondan, axborotning haddan tashqari yuklanishi va boshqa tomondan, axborot tanqisligi foydalanuvchida ambivalent jarayonlarini rivojlantirishni boshlaydi. Bunday sharoitda o‘qituvchilar oldida yoshlarni raqamli jamiyatda hayotga moslashtirish, ularning mediakompetensiyasini, raqamli savodxonligini va internet makonida harakat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish kabi juda murakkab vazifalar turganligini ko‘rishimiz mumkin. Axborotni qidirish, uni baholash va ishlab chiqarish uchun funksional ko‘nikmalarni rivojlantirish maktablar va universitetlarda ta’lim dasturlarining majburiy tarkibiy qismiga aylanishi zarurligini ko‘rsatmoqda.

Mediata’lim, bir tomondan, yoshlar uchun samarali kasbiy tayyorgarlikni ta’minlash bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ularning raqamli jamiyatda o‘zining mavqeyiga ega bo‘lish uchun asos yaratadi. Media-ta’limning yana bir asosiy tomoni, madaniy me’yorlarni, bilim olishning akademik an’analarini va tarbiyaviy qadriyatlarni saqlashga imkon beradi.

Mediakompetensiya va raqamli savodxonlik raqamli jamiyatda ijtimoiy aloqa, hamkorlik va axloqiy me’yorlarni shakllantirish uchun asosdir. Mediaolamning bugungi kunda ommalashib borayotgan vositalaridanbiri ChatGPTning ta’lim tizimlariga integratsiyasi etika, akademik yaxlitlik, mediamadaniyati va mediakompetensiya bilan bog‘liq yangi savollarni yuzaga kelishiga asos bo‘lmoqda. Buday raqamli texnologiyalarning kundalik hayotga keng miqyosda kirib borishi axloqiy me’yorlarni buzish va imtihonlarda aldash (o‘zini aldash) raqamli davrning atributlari (ajralmas qismi)dan biriga aylanib bormoqda. Ushbu qoidabuzarliklar universitet yoki institut ta’limining mavqeyiga putur yetkazadi.

Shu nuqtayi nazardan, ta’limda raqamlashtirishni ta’minlashning maqsadlariga quyidagi amaliy jarayonlarni kiritishimiz mumkin:

1. Talabalarning ta’limni raqamlashtirishga bo‘lgan munosabatini va uning mumkin bo‘lgan afzalliklarini aniqlash (o‘qishni individuallashtirish, talabalarning motivatsiyasini oshirish, ma’lumotlarning mavjudligini ta’minlash).

2. Raqamlashtirish, ma’lumotlarga munosabat, o‘rganish, an’anaviy o‘qitish amaliyoti sharoitida yoshlarning ijtimoiy normalarining o‘zgarishini o‘rganish.

3. Yoshlarning raqamlashtirishga bo‘lgan munosabati va ma’lumotlarni qidirish va tizimlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish, raqamli aloqa mahsulotlarini tanqidiy tushunish o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish.

Raqamlashtirishning salbiy oqibatlari, boshqa narsalar qatori, ta’limdagi ijodiy makonning torayishi, shaxsning mediakompetensiyasini shakllantirishda bir qator to‘siqlarning shakllanishi bilan bog‘liq. O‘rganilgan muammolarning oldini olish va yechimini topish mediata’limning resurs sohasida bo‘lib, bu bizga “axborot iste’moli” va uni tanqidiy tushunish, tahlil qilish, sintez qilish va ishlab chiqish kabi tushunchalarni ajratishga imkon beradi. Ushbu fikrlar A.V.Fedorov asarlarida bayon qilingan xulosalar bilan tasdiqlangan. Olim shaxsning mediakompetensiyasini “mediamatnlarini tanlash, ishlatish, tanqidiy tahlil qilish, baholash, yaratish va uzatishni osonlashtiradigan uning motivlari, bilimlari, ko‘nikmalari, qobiliyatlari to‘plami”, deb ta’riflaydi [5;4–17-b.].

Zamonaviy strategik ta’lim jarayonida raqamlashtirish ishlab chiqarish, iste’mol qilish va axborot almashish jarayonlarini tubdan o‘zgarishini talab qilmoqda. Shunga ko‘ra, yoshlarni raqamli voqelikning o‘zgaruvchan sharoitlariga tayyorlash uchun ta’limdagi yangi yondashuvlarni nazariy va empirik tushunishga ehtiyoj tug‘iladi. Rossiyalik olimlar ushbu kontekstda ta’limning ikkita qarama-qarshi tushunchasi mavjudligini ishlab chiqishdi:

–foydalanuvchi-iste’molchi;

–shaxsiy rivojlanish.

Birinchi konsepsiya (foydalanuvchi-iste'molchi) ta'limning texnologik dominantlariga qaratilgan. Bu raqamli texnologiyalarga xizmat ko'rsatish ko'nikmalarini, axborot tizimlari bilan ishlashda Avtomatlashtirilgan ko'nikmalarni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi konsepsiya (shaxsiy rivojlanish) talabaning ijodiy qobiliyatlari va madaniy tajribasini rivojlantirish zarurligini hisobga oladi. Ushbu yondashuvning ustun xususiyati bilimning kognitiv harakatlarining umumlashtirilgan usuli sifatidagi qiymatidir [6;32–47-b.].

Ta'limni mediatsiya qilish sharoitida pedagogning kasbiy mahoratini shakllantirish ularning o'quv jarayonida ommaviy axborot vositalaridan foydalanishga to'liq tayyorlanishini ta'minlash bilan uzviy bog'liqdir. Hozirgi bosqichda pedagogik fanlarning o'ziga xos yo'nalishi sifatida mediata'limi ommaviy axborot vositalari yordamida shaxsni shakllantirish va rivojlantirish jarayonini anglatib, bo'lg'usi o'qituvchining ijodiy, kommunikativ qobiliyatlarini, tanqidiy fikrlashni, turli xil ma'lumotlarni talqin qilish, tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini shakllantirish va raqamli texnologiyalar yordamida o'zini namoyon qilishning turli shakllarini o'rgatishni nazarda tutadi.

Tahlil va natijalar. Mediata'limning asosiy vazifalari: yangi avlodni zamonaviy axborot sharoitida hayotga tayyorlash, turli xil ma'lumotlarni idrok etish, insonni uni tushunishga o'rgatish, uning psixikaga ta'sirining oqibatlarini anglash, texnik vositalardan foydalangan holda, og'zaki bo'lmagan aloqa shakllari asosida aloqa usullarini o'zlashtirishdir.

Mediakompetensiya bu eng muhimlaridan biridir, chunki u shaxs hayotining moddiy asosini yaratadigan, inson faoliyatining ijtimoiy-madaniy tomonini shakllantiradigan va shaxslararo munosabatlarni amalga oshirish usullaridan biri bo'lgan ma'lumotlarga asoslanadi. Mediakompetensiya atamasi barcha sohalardagi mutaxassislarning professional submadaniyatining bir qismi bo'lib, insonning tez o'zgaruvchan dunyodagi muvaffaqiyati bilan bevosita bog'liqdir, shu bilan bir qatorda, oliy ta'limda mediata'limning asosiy atamasi sifatida qaraladi. A.V.Fedorov tahlil qilinayotgan sohadagi atamalarning keng tarqalishini ta'kidlab, "Media competency" atamasini turli ko'rinishlarda ilmiy asoslab bergan. Misol sifatida ushbu atamalarga keltirilgan ta'riflar quyidagicha izohlanadi.

Shaxsning mediakompetensiyasi (media competence of personality) uning motivlari, bilimlari, ko'nikmalari, qobiliyatlari to'plami (ko'rsatkichlar: motivatsion, aloqa, axborot, idrok, talqin/baholash, amaliy operatsiya/faoliyat, ijodiy), turli xil, shakl va usulllarda mediamatnlarini tanlash, ulardan foydalanish, tanqidiy tahlil qilish, baholash, yaratish va uzatishga, jamiyatdagi ommaviy axborot vositalarining murakkab jarayonlarini tahlil qilishga hissa qo'shadi.

O'qituvchining mediakompetensiyasi (educator's media competence) uning motivlari, bilimlari, ko'nikmalari, qobiliyatlari to'plami (ko'rsatkichlar: motivatsion, axborot, uslubiy, amaliy-operatsion/ faoliyat, ijodiy), turli yoshdagi auditoriyalarda media-ta'lim faoliyatini rag'batlantirishdir [7;25-b]..

Shunday qilib, bo'lajak pedagoglarni media-ta'limga tayyorlash rejasida tinglovchilarni mediata'lim usullari va shakllarini o'rganish va pedagogik amaliyot jarayonida mediata'lim sohasidagi yorqin bilim va ko'nikmalardan foydalanishni o'z ichiga olgan aniq va puxta ishlangan yo'nalishlar belgilab olinishi zarur. Ushbu yo'nalishlarni to'liq amalga oshirish uchun auditoriya mediakompetensiyasini rivojlantiruvchi quyidagi ko'rsatkichlarini inobatga olish kerak:

– motivatsion (mediamatnlar bilan aloqa qilish motivlari: janr, tematik, hissiy, epistemologik, hedonistik, psixologik, axloqiy, intellektual, estetik, terapevtik va boshqalar);

– aloqa (mediamadaniyat asarlari bilan aloqa chastotasi);

– axborot (mediamadaniyatning terminologiyasi, nazariyasi va tarixi, ommaviy aloqa jarayoni haqidagi bilimlar);

– sezgi (mediamatnlarni idrok etish qobiliyati); talqin qilish/baholash (mediamatnlarni ma'lum bir darajadagi idrok asosida talqin qilish, tahlil qilish qobiliyati, tanqidiy avtonomiya);

– ijodiy (faoliyatning turli jihatlarida – idrok, o'yin, badiiy, tadqiqot va boshqalar, ommaviy axborot vositalari bilan bog'liq bo'lgan ijodiy elementning mavjudligi).

Xulosa. Shaxsni axborot jamiyatida yashashga va o'zining mavkeini media ta'lim imkoniyatlari orqali belgilashiga tayyorlash muammosi an'anaviy ravishda xalqaro hamjamiyat diqqat markazida bo'lib kelmoqda, qolaversa, UNESKO tashkiloti tomonidan bir necha yillar davomida dolzarb masala sifatida qaralmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, raqamli jamiyatda talabalarni mediakompetentligini rivojlantirishda mediata'lim faoliyati uchun quyidagi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar:

–konseptual: mediata'limi sohasidagi keng nazariy va pedagogik bilimlar;

–motivatsion: mediata'limi sohasidagi bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish istagini mavjudligi;

–operatsion: mediaidrokiga munosabati, hodisaning paydo bo‘lish sabablari, shartlari va mohiyatini tushuntirish qobiliyati, mediamadaniyat sohasidagi rivojlanish darajasini aniqlash, maqbul usullarni tanlash qobiliyati;

–ijodiy (kreativ): moslashuvchanlik, harakatchanlik, assotsiativlik, o‘ziga xoslik, tafakkurning antitereotipikligi, tasavvurning rivojlanishi, xayolot va boshqalardan iborat kasbiy tayyorgarlik darajalariga ega ta’lim tizimini yaratishdir.

Ta’lim tizimida mediata’limning integratsiyalashuvini ta’minlashga qaratilgan sohadagi har bir muammoning yechimi ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining mediakompetentlik darajasi bilan bog‘liqdir. Bundan tashqari, o‘quvchi va talabalarning mediaolamdagi harakatini nazorat qilish, “raqamli kelajak” sari to‘g‘ri yondashuvni ta’minlash zamonaviy ta’limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Искаков Бейбит Абаканович. “Развитие медиакомпетентности учителей в условиях ресурсного центра”. Дисс., Барнаул, 2013, с. 3–9.

(2). Маркулис Светлана Юрьевна. “Модель повышения информационно-коммуникационной компетентности педагогических работников в условиях ресурсного центра”. Дисс., М., 2010, с. 3–14.

(3). Кутькина Олеся Петровна. “Педагогические условия формирования медиакомпетентности будущих библиотечно-информационных специалистов”. Дисс., Барнаул, 2006, с. 8–10.

(4). Elena Frolova. Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi moliya universiteti. “Raqamlashtirishning salbiy oqibatlarini kamaytirishda Mediata’limning roli”. Jurnal: “Медиаобразование”, 2025, 21(1), с. 45–54

(5). А.В.Федоров. Словарь терминов по медиаобразованию, медиапедагогике, медиаграмотности, медиакомпетентности. М., МОО “Информация для всех”, 2014, с. 4–17.

(6). Е.Н.Шутенко, А.И.Шутенко. “Особенности активизации личностного потенциала студентов в условиях цифровизации вузовского обучения”. Международный электронный научный журнал “Перспективы науки и образования”. 2022, 60(6), с. 32–47.

(7). А.В.Федоров. Словарь терминов по медиаобразованию, медиапедагогике, медиаграмотности, медиакомпетентности. М., 2014, с. 25.

Xudayberganov Shuhrat Shavkat o‘g‘li (UrDPI “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi professori v.b., p.f.b.f.d. (PhD) Xorazm viloyati, Urganch shahri; sh.xudayberganov.urdu@mail.ru; ORCID-0009-0007-9006-8998),

Sultonboyeva Maftuna Mansurbek qizi (UrDPI Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim) mutaxassisligi 1-kurs magistranti (Xorazm viloyati, Urganch shahri; maftunamansurbekovna04@gmail.com)

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI TAYYORLOV GURUHI TARBIYALANUVCHILARIDA KOGNITIV QIZIQISHNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarida kognitiv qiziqishni rivojlantirish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Kognitiv qiziqish tushunchasining pedagogik-psixologik mazmuni ochib berilib, maktabgacha yosh davrining o‘ziga xos xususiyatlari asosida bolalarda bilishga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirishning muhim omillari yoritilgan. Shuningdek, rivojlantiruvchi ta’lim muhiti, o‘yin, tadqiqot faoliyati va muammoli vaziyatlar orqali kognitiv qiziqishni rivojlantirishning samarali metod va vositalari ko‘rsatib berilgan. Mazkur maqola maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilari, pedagogika yo‘nalishi talabalari hamda soha mutaxassislari uchun amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *kognitiv qiziqish, maktabgacha ta’lim, bilish faoliyati, intellektual rivojlanish, ta’lim muhiti, o‘yin faoliyati, tarbiyachi, pedagogik metodlar.*

РАЗВИТИЕ ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ИНТЕРЕСА У ВОСПИТАННИКОВ ПОДГОТОВИТЕЛЬНЫХ ГРУПП ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ

Аннотация. *В данной статье с научно-теоретической и практической точек зрения анализируются вопросы развития познавательного интереса у воспитанников дошкольных образовательных организаций. Раскрывается педагогико-психологическое содержание понятия познавательного интереса, а также освещаются важные факторы формирования потребности в познании у детей с учётом возрастных особенностей дошкольного периода. Кроме того, представлены эффективные методы и средства развития познавательного интереса посредством развивающей образовательной среды, игровой, исследовательской деятельности и проблемных ситуаций.*